



**“QUTADG’U BILIG” ASARINING O’QUVCHI TARBIYASIDAGI
O’RNI**

Andijon davlat pedagogika instituti f.f.b.f.d. katta o’qituvchisi

Xamraqulova Guluzro Dilmuradovna

Andijon davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Karimova Dilobod Xalimovna

Filologiya fakulteti o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabasi

Ergasheva Mehrixon Rahmatulla qizi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan “Qutadg’u bilig” asarining hozirgi zamon o’quvchilari tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Asarda ilgari surilgan axloqiy, ijtimoiy va siyosiy g’oyalar yosh avlodning ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Ayniqsa, adolat, dono so’z, mehnat, sabr-toqat, ilmga intilish kabi qadriyatlar o’quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada asarning ta’lim-tarbiyadagi didaktik funksiyasi, hozirgi o’quv jarayoniga integratsiya qilish yo’llari va pedagogik salohiyati ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Qutadg’u bilig, Yusuf Xos Hojib, tarbiya, axloq, ma’naviyat, adolat, o’quvchi shaxsiyati, qadriyatlar, didaktika, ilm.

Yusuf Xos Hojib tomonidan XI asrda yozilgan “Qutadg’u bilig” asari nafaqat siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan, balki o’z davri va bugungi kun yoshlari uchun ham tarbiyaviy manba sifatida katta ahamiyatga ega.¹ U nafaqat o’z davrining siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotini yoritgan, balki bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda. “Qutadg’u bilig” so’zma-so’z tarjimada “Saodatga eltuvchi bilim” degan ma’noni bildiradi. Bu asar o’z zamonida davlat boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy masalalarni yoritgan bo’lsa-da, hozirgi kunda ham tarbiyaviy ahamiyatini yo’qotmagan. Ayniqsa, o’quvchi yoshlar

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. O’zbek tiliga tarjima. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2001.



ongida milliy o'zlikni shakllantirish, axloqiy me'yorlarni singdirish va intellektual salohiyatni rivojlantirishda asarning o'rni beqiyosdir. Asarda ilgari surilgan adolat, aql, baxt, qanoat kabi tushunchalar orqali shaxsiy fazilatlar tarannum etiladi. Bu g'oyalar hozirgi ta'lim tizimi uchun ham dolzarbdir.²

Asarda davlat boshqaruvi, odob-axloq, adolat, halollik, ilm va tafakkur kabi tushunchalarning teran tahlili berilgan. Bu g'oyalar bugungi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularni yuksak insoniy fazilatlar bilan tarbiyalashda muhim vosita bo'lishi mumkin. Asardagi bosh qahramonlar – Kuntug'di (Adolat), u har bir inson adolatli bo'lishi, o'z haqini bilishi va boshqalarning haqiga ham hurmat bilan qarashi kerakligini anglatadi. Oyto'ldi (Davlat), u saodatga erishish uchun halol mehnat qilish, sabrli va matonatli bo'lish lozimligini ko'rsatadi. O'gdulmish (Aql), u aql bilan ish yuritish, bilimga tayanish, har qanday holatda ham o'ylab qaror qabul qilish zarurligini o'rgatadi. va O'zg'urmish (Qanoat), ko'p narsaga erishish emas, balki bor narsaga shukr qilish, qanoatli bo'lish baxtli hayot kaliti ekanini tushuntiradi. Ushbu obrazlar orqali o'quvchilarga hayotda eng zarur bo'lgan fazilatlar tushuntiriladi. Har bir obraz o'zida muayyan tarbiyaviy mezonlarni mujassam etgan bo'lib, bu obrazlar orqali yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatiladi, yaxshi xulq-atvor targ'ib qilinadi. Masalan, Adolat timsoli bo'lgan Kuntug'di orqali adolatparvarlik, to'g'rilik va halollik tushunchalari targ'ib qilinadi.³ Bu esa yoshlarda fuqarolik mas'uliyati va halollik g'oyalarini shakllantirishga, adolatni ustuvor qo'yish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, mehnatga munosabat kabi tamoyillar yoshlar ongida mustahkam ijtimoiy ong va xulq shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, asarda ilm va donolikning ustuvorligi, nodonlikning oqibatlarini haqida chuqur fikr yuritiladi. "Ilm bilan yo'l yurgan adashmaydi", degan mazmundagi fikrlar yoshlarni bilim olishga, intiluvchanlikka undaydi. Zamonaviy pedagogik jarayonda "Qutadg'u bilig" kabi asarlarning o'rni beqiyosdir. Uni dars jarayonlarida yoki tarbiyaviy soatlarda tahlil qilish orqali o'quvchilarda nafaqat badiiy tafakkur, balki insoniylik, vatanparvarlik va ma'naviy yetuklik kabi his-tuyg'ularni uyg'otish mumkin. Abdurauf Fitrat "Qutadg'u

² G'aniyeva N. Qutadg'u bilig – axloqiy kamolot darsligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

³ Do'stmuhammad H. Turkiy til va adabiyot. – Toshkent: Akademnashr, 2015.



bilig”ni ilk turkiy yozma adabiy asar sifatida yuksak baholagan va uni o‘zbek adabiy tilining rivojida muhim bosqich deb atagan.⁴ Alisher Navoiy ham “Majolis un-nafois” asarida Yusuf Xos Hojibni donishmand shoir sifatida e’tirof etgan va uning hikmatli so‘zlarini qadrlagan.⁵ Pedagogik yondashuvlarda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar asosida ulg‘ayishini ta’minlash muhim hisoblanadi. “Qutadg‘u bilig” asarining o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi bilan nafaqat til va adabiyot bilimlari oshadi, balki o‘quvchilar ongida ma’naviy immunitet ham kuchayadi. Bu esa ularni kelajakda mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

“Qutadg‘u bilig” nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar – odob, andisha, sabr, halollik, ilm, mehnat, to‘g‘rilik – hozirgi zamon yoshlariga ham aynan kerakli bo‘lgan fazilatlaridir. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanishi, ma’naviy tahdidlar ostida qolayotgani sharoitida, “Qutadg‘u bilig” asari ruhiy-ma’naviy tarbiya uchun eng to‘g‘ri manba hisoblanadi. Asarning tili o‘ziga xos didaktik (o‘rgatuvchi) uslubda yozilgan. Har bir baytda hikmat bor, unda shunchaki g‘oya emas, balki hayotiy tajriba mujassam. Bu jihat yoshlarni tafakkur qilishga, o‘qiganini tahlil qilishga o‘rgatadi. Asarda islomiy qadriyatlar, xususan, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, taqvo, shukr, sabr kabi tushunchalar chuqur yoritilgan. Bu esa yoshlarning diniy-ma’naviy bilimlarini boyitadi va ularni ezgulikka undaydi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida yoshlarni milliy g‘urur, tarixiy xotira, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim yo‘nalishlardan biridir. “Qutadg‘u bilig” asari bu maqsadlarga to‘liq mos keladi. Shuning uchun u adabiyot, tarix, ma’naviyat darslarida faol qo‘llanilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg‘u bilig” asari yosh avlod tarbiyasida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarimizni asrash va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, o‘quvchilarga asar orqali milliy g‘urur, ma’naviyat, sabr, ilmga muhabbat kabi hislatlar singdirilishi

⁴ Fitrat A. O‘zbek adabiyoti namunalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991

⁵ Navoiy A. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1997.



mumkin. Uni ta'lim jarayonida qo'llash orqali yosh avlodni yuksak axloqiy va intellektual darajaga olib chiqish mumkin. Asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. O'zbek tiliga tarjima. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2001.
2. G'aniyeva N. Qutadg'u bilig – axloqiy kamolot darsligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
3. Do'stmuhammad H. Turkiy til va adabiyot. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
4. Fitrat A. O'zbek adabiyoti namunalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991
5. Navoiy A. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1997
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008